

## TA'LIM JARAYONIGA PASSIV VA AKTIV O'QITISH TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

**Nazarov Toshpo'lat Boshbek o'g'li**

Jizzax davlat pedagogika institute

Maktab menejmenti o'qituvchisi

**Ismatov Behzod Faxriddin o'g'li**

Jizzax davlat pedagogika instituti

Maktab menejmenti yo'nalishi 1- kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ta'lim jarayonida o'qitish metodlarini qo'llashda to'g'ri yondashish ta'lim sifatini oshishiga va o'quvchilarni o'zlashtirish ko'rkatkichini yaxshilanishiga sabab bo'ladi.

**Tayanch iboralar:** Metod, passiv metod, aktiv metod, guruhli muhokama, interaktiv metod, basked metod

Har bir o'qituvchi va pedagog ta'lim jarayonini samarali boshqarish uchun qator innovatsion ta'lim texnologiyalardan foydalanadi, bunga asosiy sabablardan biri shuki, talaba yoshlarni dars jarayoniga qiziqtirish va ularda boshqaruvchilik madaniyati oshirishdan iborat. Buning uchun bizga quydagi ta'lim texnologiyalari kerak bo'ladi, Ushbu maqolada ba'zilar haqida ma'lumotlar berib o'tamiz.

Avvalo, metodga ta'rif berishdan boshlasak o'rinli bo'ladi.

**Metod (gr. *methodos* – «izlanish»)** – bu harakatning usuli yoki shakli; maqsadga erishish usuli; ma'lum bir shaklda tartiblangan faoliyat; aniq masalani yechishga qaratilgan voqelikni amaliy, yoki nazariy o'zlashtirish uchun usullar yoki amallar mosligidir. Adabiyotlarda o'qitish metodlarining aniqlanishiga turlicha yondoshuvlar keltirilgan:

- o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining usuli;
- ishlash usullari mosligi;

- o'qituvchining o'quvchilarni bilimga yetaklovchi yo'li;
- o'qituvchi va o'quvchining harakatlar tizimi.

**O'qitish metodi** maqsadga erishish usuli sifatida, o'qituvchining tartiblangan ketma-ket harakatlari tizimini ifodalaydi. Metodga faoliyat turi sifatida yondashilganda, pedagogik masalalarni yechishga qaratilgan alohida harakatlar, yoki qoidalar sifatida qarash qabul qilingan<sup>1</sup>. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan yo'llarni o'z ichiga oladi.

**Passiv metod** – bu darsning borishi jarayonida o'qituvchi asosiy yetaklovchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi, o'quvchilar esa o'qituvchi ko'rsatmalariga bo'ysinuvchi passiv tinglovchilar rovida ishtirok etadi. Passiv darslarda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqa so'rovlar, nazorat ishlari, testlar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Ta'limda passiv metod sxemasi Passiv metodga yana bir misol sifatida “suhbat”ni keltirib o'tish mumkin<sup>2</sup>.

**Suhbat** – o'qitishning muloqotli metodidir. Bunda o'qituvchi chuqur o'ylangan savollar tizimini qo'yish orqali o'quvchilarni yangi materialni tushunib olishlariga olib keladi, yoki avval o'rganganlarini o'zlashtirganlik darajasini tekshiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish nuqtai nazaridan passiv metod samarasiz hisoblanadi, ammo shunga qaramasdan bir qator ijobiy tomonlarga ham ega. Bu o'qituvchi tomonidan darsga nisbatan yengil tayyorgarlik ko'rish va katta hajmdagi o'quv materialini dars uchun chegaralangan vaqt doirasida yetkazib berish imkoniyatini beradi. Bunday ijobiy tomonlarini hisobga olgan holda, ko'plab o'qituvchilar

---

<sup>1</sup> <https://fayllar.org/oqitish-metodlari-deyilganda-nimani-tushuniladi.html>

<sup>2</sup> <http://www.hozir.org/4-amalij-mashfulot-uvchilar-bilim-knikma-malaka-va-kompetentli.html?page=2>

boshqa metodlarga nisbatan passiv metoddan foydalanishni afzal ko'radilar. Ayrim hollarda malakali pedagogda bu metod samarali ishlaydi, ayniqsa, o'qituvchi fanni to'la o'zlashtirishga yo'naltirilgan aniq maqsadga ega bo'lsa.

**Ma'ruza** – passiv darsning eng keng tarqalgan ko'rinishidir. O'qitishning bu usuli fanni chuqur o'zlashtirishni maqsad qilib qo'ygan, yetarlicha shakllangan, katta yoshdagilar o'qiydigan oliy ta'lim muassalarida keng tarqalgan. Bahsli uqitish (diskussiya) – bu ham passiv metodning aspekti hisoblanadi. Uning o'quv jarayoniga tayinlanishining asosiy maqsadi – anglash qiziqishlarini stimullashtirish, o'quvchini u yoki bu muammoga qarashlarni aktiv muhokama qilish o'zi va o'zganing qarashlariga yondoshuvlarni uyg'otish. Buning uchun o'quvchining qo'shimcha tayyorgarligi zarur.

Bilimsiz diskussiya mazmunsiz va noaniq bo'lib, o'z fikrini yetkazib bera olmaslik paydo olib keladi. O'quv munozarasi bir tomondan o'quvchida o'z fikrlanini aniq va ravshan bayon qillishni, asoslash argumentlarini tizimlashtirishni, ikkinchi tomondan fikrlashni o'rgatish, baxslashish, o'zining haqligini isbotlashni nazarda tutadi. Yaxshi o'tkazilgan 460 diskussiya katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, u boshqalarning fikrlarini hisobga olishni, o'z pozitsiyasini himoya qilishni o'rgatadi.

**Aktiv metod** – bu o'qituvchi va o'quvchining o'zaro aloqasi bo'lib, bunda o'qituvchi va o'quvchi darsning borishi jarayonida o'zaro muloqot qiladi va o'quvchilar darsning passiv emas, balki faol ishtirokchisiga aylanadi. Agar passiv darsda asosiy shaxs o'qituvchi bo'lsa, bu yerda o'qituvchi va o'quvchi bir xil pozitsiyada bo'ladi, ya'ni teng huquqli. Agar passiv metodlar avtoritar aloqa stilini nazarda tutsa, aktiv metodlar ko'proq demokratik stilni nazarda tutadi. Ko'pchilik aktiv va interaktiv metodlar o'rtasida tenglikni qo'yadi, ammo, bir xillikka qaramasdan ular farqlanishga ega. Interaktiv metodlar aktiv metodlarning zamonaviy shakli deb qarash mumkin. Aktiv o'qitish metodi sxemasi Bugungi kunda o'qitishning quyidagi aktiv metodlari keng tarqalgan hisoblanadi: Amaliy eksperiment (tajriba).

**Loyihalar metodi** – o‘quvchining amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ijodiy yondoshuviga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini tashkillashtirish. Guruhli muhokama – nisbatan katta bo‘lmagan guruhlarda (6-12 o‘quvchi) aniq masala bo‘yicha guruhli diskussiya (muhokama). Aqliy hujum – huguhda ishlashning maxsus metodi bo‘lib, har bir ishtirokchining ijodiy fikrlashini rag‘batlantiruvchi yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishiga yo‘naltirilgan. Ishga aloqador o‘yinlar – samarali o‘quv va kasbiy faoliyatida ma’lum bir yo‘lni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan faol ishlashni tashkillashtirish metodi. Rolli o‘yinlar – aloqa sohasida ma’lum bir ko‘nikmalarga ishlov berish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun foydalaniluvchi metod. Rolli o‘yin kamida ikki "o‘yinchi"ning ishtirokini nazarda tutadi. Har bir o‘yinchiga berilgan rolga mos holda bir-biri bilan maqsadli muloqot qilish taklif qilinadi.

**Basket-metod** – vaziyatlarni imitatsiya qilish (o‘xshatish) asosida o‘qitish metodi. Masalan, o‘quvchiga kompyuter texnikasi muzeyi boyicha ekskursovod rovida chiqish taklif qilinadi. Tayyorlanish uchun materiallarda zalda taqdim etilgan eksponatlar haqidagi barcha zarur axborotlarni oladi. Treninglar – maxsus berilgan vaziyatlarni modellashtirish jarayonida o‘quvchi zarur bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish va mustahkamlash, o‘zining mahoratiga munosabatini, qo‘llayotgan yondoshuvlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kompyuterli o‘rgatuvchi dasturlardan foydalanib o‘qitish. Amaliy vaziyatlar tahlili – qaror qabul qilish ko‘nikmalarini o‘rgatuvchi metod. Uning maqsadi axborotni tahlil qilish, asosiy muammolarni aniqlash, yechimning alternativ yo‘llarini generatsiyalash, ularni baholash, optimal yechimni topish va harakatlar dasturini shakllantirish hisoblanadi. Aktiv o‘qitish metodini tanlash turli faktorlarga bog‘liq. U sezilarli darajada o‘quvchilar soni bilan aniqlanadi (ko‘plab metodlardan katta bo‘lmagan guruhlarda foydalanish mumkin)<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Gulboyev T. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish. – Navoiy, 2001.

Ammo, metodni tanlash birinchi navbatda darsning didaktik masalasi bilan aniqlanadi. Aktiv o'qitish metodlarini birinchi navbatda o'quv motivatsiyasini oshirish uchun qo'llash lozim. Bundan tashqari, mustaqil o'qish qobiliyatini rivojlantirish, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tish mumkinki, passiv metodlardan foydalanilgan darslarda o'qituvchi o'zi barcha ma'lumotlarni beradi va navbatdagi qadamni to'la tushuntiradi. Aktiv metodlardan foydalanilgan darslarda maqsadga erishish uchun mavzuni tushuntirish jarayonida o'quvchining o'zi ishtirok etadi: krassvodrdni yechadi, ijodiy mashqlarni bajaradi. O'quvchilar aktiv metodlar yordamida o'qitilayotgan fanni ko'proq sifatli o'zlashtirladi.

Umuman olganda bu metodlardan tashqari juda ko'plab innovatsion ta'lim texnologiyalar va metodlar mavjud. Har bir metoddan oqilona foydalanish esa har bir pedagoglarni vazifasi hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: “Iqtisodiyot” nashr., 2011.
2. Gulboyev T. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish. – Navoiy, 2001.
3. Nazarov, T. (2021). TA'LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4423>
4. Botirov, BF, Usmonov, J., & Ablyakimova, RI (2021). O'zbekistonda turizm xizmatlarini milliy uslublar va zamonaviy innovatsiyalar uyg'unligi asosida tashkil etish. XALQARO ILMIIY-JORIY TADQIQOT KONFERENTSIYALARI, 53–57.
5. Alimova, Q. (2021). ZAMONAVIY MENEJER FAOLIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/920>

6. Alimova, Q. (2021). TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISH. *Jizzax innovatsion ta'limi*, 1 (1). <https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564>
7. Soibnazarova, M. (2022). YOSHLAR TARBIYASIDA ABDURAHMON JOMIYNNIG ASARLARIDAN FOYDALANISH. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5634>
8. Санакулова, З. А., & Соибназарова, М. Н. (2017). Модульное обучение как педагогическая технология. In *Педагогическое мастерство* (pp. 20-22).
9. Norpulatovna, S. M. (2021, January). THE PROBLEMS OF HUMANITY IN PHILOSOPHICAL SCIENTIST. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 478-479).
10. Soibnazarova, M. (2022). ЁШ АВЛОДНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯСИДА МУТАФАККИРЛАРНИНГ ФИКРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5573>
11. Soibnazarova, M. (2022). БУЮК МАЪРИФАТПАРВАР М.БЕҲБУДИЙНИНГ ПЕДАГОГИК ФИКРЛАРИНИНГ ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДАГИ АҲАМИЯТИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5572>
12. Po'latova, N. (2022). ОТМ ИЛМИЙ ВА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИНГ МАЗМУН МОҲИЯТИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5113>
13. Nazira Po'latova, [ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ КАК ФАКТОР ДУХОВНОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ](#), [Журнал Педагогики](#)

и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari

14. Nazira Po'latova, ЁШЛАРНИ ОИЛАВИЙ ХАЁТГА ТАЙЁРЛАШДА ИБН СИНО ИЛМИЙ МЕРОСИДАН ФОЙДАЛАНИШ, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 2 (2021): Журнал педагогика и психологии в современном образовании

15. Mamaraimova, R. (2022). ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИНГ ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАР ЁРДАМИДА ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ МАЗМУН МОҲИЯТИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от

<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5112>

16. Nasiba Jumanova, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ АКТИВАЦИИ, УСКОРЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: Том 1 № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari

17. Majidov, Jasur Baxtiyarovich (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 608-613.

18. Маджидов, Д. Б., & Шарофиддинов, А. (2017). Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. In *Актуальные вопросы современной психологии* (pp. 22-24).

19. Shirin Kamolova, САМОВОСПИТАНИЕ – ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ ГАРМОНИЧНО – РАЗВИТОГО ПОКОЛЕНИЯ, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education

20. Shirin Kamolova, ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari

21. Shirin Kamolova, [THE ROLE OF UNIVERSAL AND SCIENTIFIC VALUES IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS](#), Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 2 (2021): Журнал педагогика и психологии в современном образовании
22. Shirin Kamolova, [ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБРАЗОВАНИИ ЯВЛЯЕТСЯ ТРЕБОВАНИЕМ СЕГОДНЯШНЕГО ДНЯ](#), Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 2 (2021): Журнал педагогика и психологии в современном образовании
23. Shirin Kamolova, [IMPLEMENTATION OF PEDAGOGICAL ETHICS IN FUTURE TEACHERS](#), Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari
24. Isoqulov, M. (2022). ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ МАЪРИФАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ВЕРТУАЛ СТЕНДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5620>
25. Isoqulov, M. (2022). ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ ОНГИДА ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ КУРАША ОЛИШ ТАФАКУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ОИЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4746>
26. Mamadoli Isoqulov, ФОРМИРОВАНИЕ МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЁЖИ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ – ВОСПИТАНИЯ , Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
27. Mamadoli Isoqulov, ТАЪЛИМ – ТАРБИЯ ЖАРАЁНЛАРИДА ЁШЛАР ТАФАККУРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ , Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 2 (2021): Журнал педагогика и психологии в современном образовании